

OLIY TA'LIMDA TA'LIM METODLARI VA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Mamatqulov Akbarjon Raim o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti, magistr

Muhammadjonov Javohir Tursunali o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti, magistr

Ilmiy rahbar: Abdullayev Bahrom Aktamovich

Toshkent davlat transport universiteti

ANNOTATSIYA

Ta'lismazmuni bu jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir.

Kalit so'zları: Metod, ta'limgeneral methods, didactic method, quality of education.

ABSTRACT

The content of education is a model of the social order that reflects the social experience and culture of the society, the demands placed on the level of spiritual development of the individual.

Key words: Method, educational methods, didactic method, quality of education.

"Metod" so'zi yunonchadan tarjima qilinganda "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" degan ma'nolarni anglatadi. Juda ko'plab pedagogik manbalarda "ta'limgeneral methods" tushunchasiga birqancha hilma-xil ta'riflar keltirilgan. Ularning ayrimlarini misol qiladigan bo'lsak:

"Ta'limgeneral methods metodi – belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir".(P.I.Podlasiy)

"Ta'limgeneral methods metodilari deganda o'qituvchining o'rgatuvchanligi va o'qituvchilarining o'quv materialini egallashga yo'naltirilgan turli didaktik masalalar yechimini



topishga oid o‘quv – bilish faoliyatlarini tashkil etish usullari tushuniladi” (I.F.Xarlamov)

“Ta’lim metodi – zamonaviy darajada o‘quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo’naltirilgan pedagog va o‘quvchilarning o‘zaro bog‘liq faoliyat usullaridir”.(V.I.Zagvyazinskiy)

Ta’lim metodlari doimo u yoki bu o‘qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o‘zaro shartlanganligini ta’kidlash joiz.

Ta’lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog‘liqdir, ya’ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta’lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta’lim jarayonining mohiyatini vatamoyillarini to‘g‘ri anglash natijasidir. Ta’lim materiali ta’lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig‘iga bog‘liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan boissa, ta’lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog‘liq bo‘ladi. Pedagogika fani maktablar va ta’lim beruvchilarning ilg‘or ish tajribalarini umumlashtiradi, an’anaviy ta’limning ilmiy asoslarini ko‘rsatib beradi, o‘qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Ta’lim metodlari tarkiban o‘qitish metodlari va o‘qish metodlaridan iborat. O‘qituvchi bilimlarni og‘zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi, o‘qituvchi mustaqil ish topshirsa, talabalarlar bajarishadi. Bilimlarni og‘zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilar o‘qitish metodlari bo‘lib, ular vositasida didaktik vazifalar (bilimlarni o‘rganish, mustahkamlash, takrorlash va sh.k) hal etiladi. O‘quv-tarbiya jarayonida ta’lim metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitish va o‘qish metodlari majmuasidan foydalaniladi. Masalan, ma’ruza metodi tarkiban o‘qituvshining o‘rganilayottan mavzuni mantiqiy izchillikka, og‘zaki bayon qilishi, o‘quvchilarning esa o‘quv materiallarini izchil tinglashi kabi metodlardan iborat. Ma’ruza metodidan shu yo‘sinda foydalanish o‘qituvchining, talabaning ham faolligi talablariga, binobarin, ta’limning samaradorligini oshirish ehtiyojlariga mos kelmaydi.

Ta’lim metodi tuzilmasi maqsadli tarkib, faoliyatli tarkib, ta’lim vositalariga ajraladi. Umumiyl holda qo‘lga kiritilgan natijalar har doim ham o‘qituvchining darsdan avval tuzilgan maqsadga mos kelavermaydi. Ta’limning maqsadi o‘qituvchi va talabalar faoliyati davomida, ta’lim vositalari ko‘magida natijalanadi. Bu jarayon esa aniq natijaga yo‘naltirilgan mexanizmning ishlashini bildiradi.



Metod, bir tomondan, ta’lim maqsadiga erishish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o‘zaro shartlanganligini ta’kidlash joiz.

“Ta’lim metodi” atamasi bilan birga ko‘p hollarda “metodik usul” tushunchasi ham qo’llaniladi. U ta’lim metodining tarkibiy qismi, unung muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta’riflanadi. Har bir ta’lim metodi muayyan ta’lim usullarini chog‘ishtirish orqali joriy etiladi.

Ta'lim metodini tanlash quyidagi me'zonlar asosida aniqlanadi:

- Didaktik maqsad asosida;
 - Ta’lim mazmuni asosida;
 - O‘quvchilarning o‘quv ko‘nikmalarini egallash va rivojlantirish darajasi asosida;
 - O‘quvchilarning tajribasi va kasbiy tavyorgarlik darajasi asosida.

O‘qituvchi tomonidan qo‘llanilayotgan ta’lim metodlari majmuasi boshlang‘ich sinflardan yuqori sinflarga o‘tish asosida o‘zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo‘llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi. Ta’lim metodlaridan foydalanish ko‘ldi, holati o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog‘liq holda o‘zgaradi.

Ta’lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko‘p bo‘lsada, bu borada yagona to‘xtamga kelinmagan.

Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Munavvarov A.Q. Pedagogika. — Toshkent, 0 ‘qituvchi, 1993.
 2. Almetov N. Pedagogika: savollar va javoblar, 0 ‘quv q o ‘llanma. — Almata, 2001.
 3. Zivomuhammedov B. Ma ’rifat asoslari. — Toshkent, Chinor ENK, 1998.
 4. Yusupov E. Inson kamolotining m a ’naviy asoslari. — T.: Universitet, 1998
 5. 1.Юлдашева, С. А., & Бўриходжаева, М. С. (2022, September). Повышение эффективности таможенной деятельности в развитии международного экономического сотрудничества. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 87-91).



6. 2. Ходжаева, Н. А., Файзиев, Р. Х., & Буриходжаева, М. С. (2021). Современное состояние системы экологического мониторинга в Республике Узбекистан. *Biznes-Эксперт*, 4, 160.
7. 3. Буриходжаева М.С. (2022). МЕТОДЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 488-495.
8. 4. Бўриҳаджаева, М.С. (2023). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (1-2), 338-345.
9. 5. M.S.Bo'rixadjayeva. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM MUASSASALARIDA BERILAYOTGAN E'TIBOR VA TALABALARINI IMLIY FAOLYATGA YO'NALTIRISH . *PEDAGOGS Jurnalı*, 28(1), 68–75. Retrieved from <http://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/3107>